PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

INKULYUZIV TA'LIMNING HUQUQIY ASOSLARI VA XALQARO TAJRIBA

Xudoydotova Jasmina
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti
maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.20066794

ANNOTATSIYA : Maqolada ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni qo'llashdagi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar, pedagogik yordam, o'qituvchilarni tayyorlash va maxsus ta'lim dasturlariningrivojlanishi haqida so'z yuritiladi. Mazkur maqolada inklyuziv ta'limning xalqaro tajribasi Global tajribada inklyuziv ta'limni amalga oshirishda ilg'or mamlakatlarningtajribalari, jumladan, Rossiya, Finlandiya, Kanada, Yaponiya, Janubiy Afrika va boshqadavlatlarning inklyuziv ta'limga bo'lgan yondashuvlari keltiriladi.

Kalit so'zlar : inklyuziv ta'lim, maxsus ehtiyojli o'quvchilar, teng imkoniyatlar, globaltajriba, o'zbekistonda inklyuziv ta'lim, pedagogik yordam, o'qituvchilarni tayyorlash, jamiyatdabarqarorlik, me'yoriy-huquqiy asoslar, ta'lim tizimi

Kirish :

Bugungi kunda eng dolzarb bo'lgan muomalardan biri,ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan bog'liq,muhim vazifalari va tizimdagi holat xususidagi masaladir. Õzbekiston mustaqillikka erishganidan sõng,barcha sohalarda bõlgani kabi, bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimida ham chuqur islohotlar va õzgarishlar sodir bõldi. Õzbekistonning huquqiy davlat sifatida rivojlanishi jarayonida Prezidentimiz har bir fuqorining manfaatini himoyalashda uning jinsi,millati ,irqi, yoshidan qat'i nazar qonun ustuvorligi ta'minlashni asosiy omil sifatida belgiladi. Inklyuziv –(inclusion-inglizcha [inclus:n]- uyg'unlashish) hamkorlikdagi ta'lim, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida tan oligan. Õzbekiston Respublikasi ilk bor eksperiment loyihalar sifatida 2005-yilda boshlangan.UNICEF xalqaro tashkiloti loyihasi doirasida 2005-2007-yilda Õzbekistonning Qoraqalpog'iston Qashqadaryo, Andijon Namangan, Surxandaryo va Toshkent viloyatlarida tajriba-sinov tariqasida ish olib borilgan ,lekin u vaqtlarda imkoniyati cheklangan bolalar tõla tõkis aniqlanib ta'limga jalb etilmagan. Õzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi (Õzbekiston Respulikasi Xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash tõgrisida)gi

PF50712sonli Farmoniga muvofiq Õzbekistonda inkluyiz ta'limni rivojlantirish ,alohida ta'lim ehtiyojlari bôlgan bolalarga ta'lim-tizimini takomillashtirish hamda ularga kõrsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatida yaxshilash maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilib kelmoqda.2020-yil oktabrda qabul qilingan Prezidentimizning alohida ta'lim ehtiyojlari bõlgan bolalarga ta'lim tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choda tadbirlari tõg'risidagi qarori bugunga misol bõla oladi.Õzbekiston Respublilasi Ta'lim tõg'risidagi qonunning 4-moddasida ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar sifatida ta'lim sohasida kamsitishlarga yõl qõymasligi hamda ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning taminlanishi qonuning 9-moddasida esa "Jismoniy, aqliy ,sensor, sezgi yoki ruhiy

nuqsonlari bõlgan bolalar ,shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bõlgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan muassasalarida, umumiy õrta va õrta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitida yakka tartibda ta'lim oladi "deb kõrsatib õtilgan.Ta'lim tõg‘risidagi qonuning tahliliga kõra qonunga har bir bolaning ta'lim olishidagi teng huquqligini ta'minlash, har qanday deskreminatsiya va kamsitishlarning oldini olishga qaratilgan inklyuziv ta'lim tushunchasi ham kiritildi.2013-yilda E.N.Morgacheva tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida inklyuziv ta'lim g‘oyasi va nogiron bolalarning xususiyatlari tõg‘risida yetarli tushunchaga ega bõlishlariga qaramay,ota-onalarning alohida ta'lim ehtiyojli bolalarga munosabatlari neytral yoki salbiy bõlishi aniqlangan.O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi qaroriga muvofiq

“Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi qonuni ishlab chiqilgan.2020-2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish,alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim sifatini yaxshilash hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifati bo‘yicha quyidagi ko‘rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi;

- alohida ta’limga muhtoj bolalar o‘qiydigan ta’lim muassalari binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish,ta’lim muassalarini maxsus asbob-uskunalar bilan (yuk ko‘tarish moslamalari,panduslar, panjara va boshqalar), shuningdek.tegishli xodimlar bilan ta’minlash (maxsus o‘qituvchilar, bolalarni psixologik-pedagogik nazorat qilish bo‘yicha mutaxasislar)

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’limiy muhiti yaxlitligi mustahkamlanadi, ularning jamiyatga integratsiyasi uchun zarur sharoitlar ta’minlanadi.Integratsiyalashgan ta’limda bolaga muammo sifatida qaraladi.Bu ta’lim tizimining quyidagicha shakllari mavjud;

- Jismoniy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli imkoniyati cheklangan bola va imkoniyati cheklanmagan bolalar o‘rtasidagi jismoniy farqni kamaytirishga qaratilgan.

- Funksional integratsiya. Bu shakl imkoniyati cheklangan bola va imkoniyati cheklanmagan bola o‘rtasidagi funksional muammolarni kamaytirishga qaratilgan.

Inklyuziv ta’limning huquqiy asoslari jahon miqyosida:

-Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil)

-“Bolalar huquqlari to‘g’risida”gi konvensiya (1989-yil)

-“Nogironlar huquqlari to‘g’risida”gi dekloratsiya (1975-yil)

-“Ta’lim hamma uchun”umumjahon dekloratsiyasi (1990-yil)

-Salamanka Bayonoti (1994-yil)

- Dakar deklaratsiyasi(2000-yil)

Inklyuziv ta’lim (ya’ni barcha bolalar, shu jumladan nogironligi bo‘lgan, ijtimoiy muammolari bor yoki boshqa maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni umumiy ta’lim muassasalarida o‘qitish)ning huquqiy asoslari ko‘plab xalqaro va milliy hujjatlar orqali belgilangan. Mana asosiylari

1. Xalqaro huquqiy asoslar

1. BMT Bolalar Huquqlari Konvensiyasi (1989)

Har bir bola teng ta’lim olish huquqiga ega ekanligini ta’kidlaydi.Maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olish huquqi kafolatlanadi.

2. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi BMT Konvensiyasi Inklyuziv ta’limni rag‘batlantiradi.Nogironligi bo‘lgan bolalar o‘z qobiliyatiga mos tarzda umumiy ta’lim muassasalarida o‘qishi kerak.

3. Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro standartlar.Diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik va teng imkoniyatlarni ta’minlashni nazarda tutadi.

2. Milliy huquqiy asoslar (O‘zbekiston misolida) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

Modda 41: Har bir fuqaro ta’lim olish huquqiga ega.

Diskriminatsiya, shu jumladan nogironligi bo‘lgan bolalarni ta’limdan cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi.

2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni

Maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim shakllarini yaratish kafolatlanadi.

3. Milliy dasturlar va normativ hujjatlar

Inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha Davlat dasturlari.Maxsus pedagogik kadrlar tayyorlash, muassasalarni moslashtirish va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish majburiyati.

3. Inklyuziv ta’limning asosiy huquqiy prinsiplari

Teng imkoniyatlar: Har bir bola ta’lim olish huquqiga ega.

Diskriminatsiyasiz muhit: Nogironligi yoki boshqa maxsus ehtiyojlariga qarab farqlash taqiqlanadi. Davlat Tajriba xususiyati

Finlandiya Ta’lim tizimi juda moslashuvchan. Har bir bola uchun Individual o‘quv rejasi tuziladi va maxsus pedagoglar sinf o‘qituvchisi bilan birga ishlaydi.

AQSh "Imkoniyati cheklangan shaxslarning ta’lim olishi to‘g‘risida"gi qonun (IDEA) asosida, bolalar "eng kam cheklangan muhit"da o‘qitiladi.

Norvegiya Maxsus maktablar deyarli mavjud emas. Barcha bolalar o‘z yashash hududidagi maktablarga boradi va qo‘shimcha resurslar bilan ta’minlanadi.

Moslashtirilgan ta’lim: Ta’lim dasturi, metodika va muhit bolaning imkoniyatlariga moslashtiriladi.Jamoatchilik va ota-onalar ishtiroki: Ta’lim jarayonida oilalar va jamoatchilik bilan hamkorlik qilinadi.Inklyuziv ta’lim-bu alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarning sog’lom tengdoshlari bilan bir xonada do‘stona ta’lim tarbiya olishidir.Davlat tomonida belgilab qo‘yilgan har bir qonun-qoidalar barcha uchun tengdir.Hozirgi kunda har bitta tumanda bunday ta'lim dargohlarini yana rivojlanitirish ta'lim samaradorligini oshirish aholiga yordam kõrsatish yõlga qõyilishi kerak.“Inklyuziv ta’lim — bu har bir bolaning teng huquqliligini ta’minlash, maxsus ehtiyojlariga qaramay, ularni umumiy ta’lim muassasalarida rivojlanish imkoniyati bilan ta’minlashdir. Bu jarayon nafaqat xalqaro konvensiyalar va milliy qonunchilik tomonidan kafolatlangan, balki jamiyatning adolat va tenglik tamoyillarini amalda ifodalashning huquqiy asosidir.”

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, inklyuziv ta’lim — bu shunchaki maktab binosiga kirish imkoniyati emas, balki har bir bolaning qalbiga yo‘l topish va uning salohiyatini ro‘yobga chiqarishdir. Xalqaro tajribani o‘rgangan holda, milliy qadriyatlarimizga mos tizim yaratish — ertangi sog‘lom va hamjihat jamiyat asosi bo‘ladi.O‘zbekistonning inklyuziv ta’lim yo‘lidagi qadamlari xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlanmoqda. Biroq, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun nafaqat qonun hujjatlari, balki har birimizning dunyoqarashimiz ham "inklyuziv" bo‘lishi

lozim. Zero, ta'lim hamma uchun va har bir bola uchun teng bo'lgandagina, u haqiqiy kuchga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"2020-yil 15-oktabr, O'RQ-641-son.https://lex.uz/docs/5049549
3. Ergasheva G.Q. Rus va O'zbek tillari psixologiya terminlarining leksiksemantik xususiyatlari. Filol. fanlari bo'yicha fal. dok. (PhD) dis. aftoref. -T.:2018